

## **Ustoz shogird musobaqasi**

Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri va samarali tashkil etishda sportning o'rni beqiyos. Jismoniy tarbiya, talabalar hayotiga tobora chuqurroq kirib bormoqda, chunki u kishi salomatligini saqlash va mustaxkamlash uni jismoniy jihatdan rivojlantirish hamda bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish vositasi bo' lib kelmoqda.

Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasi dotsenti Adham Mamataliyev va assistant Javlon Ishchanovlar 3-TTJda 1-kurs talabalari o'rtasida stol tennis bo'yicha qiziqarli musobaqa uyuştirdilar. Musobaqada talabalar komandalari bilan birgalikda ustozlar komandasini ham ishtirok etdi. Bu esa talabalarda katta qiziqish uyg'otdi.

Musobaqa juda ko'tarinki va do'stona ruhda o'tdi. Ustozlarning musobaqada mahorat bilan ishtirok etishi, umuman sport bilan shug'ullanishlari talabalarga o'rnak bo'ldi deyish mumkin. Bu uchrashuv talabalarni sportga yanada yaqinlashtirishda biroz bo'lsada turki bo'lsa ajab emas.

**Dotsent Adham Mamataliyev axboroti**

**Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov**